

2019 yil 1-oktyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishva tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yishva rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyatimizda 3 757 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 253 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2 670 ta (16,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 18 850 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019 yilning 1-oktyabr holatiga 18 850 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,5 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 25,8 % savdo, 13,8 % sanoat, 12,1 % qurilish, 7,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 1,7 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,3 % axborot va aloqa hamda 26,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.10.2019 yil	
	01.10.2018 yil	01.10.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	16180	18850	116,5	100
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1283	1363	106,2	7,2
Sanoat	1994	2604	130,6	13,8
Qurilish	1797	2287	127,3	12,1
Savdo	3851	4860	126,2	25,8
Tashish va saqlash	715	769	107,6	4,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1121	1328	118,5	7,1
Axborot va aloqa	219	235	107,3	1,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	283	325	114,8	1,7
Boshqa turlari	4917	5079	103,3	26,9

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar sonining eng ko'pi Termiz shahri (3 922 ta), Denov (2 227 ta), Jarqo'rg'on (1 417 ta) va Termiz (1 306 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Oltinsoy (712 ta), Muzrabot (834 ta) hamda Boysun (910 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 18 463 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2 823 ta (18,0 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,0 % savdo, 13,9 % sanoat, 12,3 % qurilish, 7,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 1,7 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % axborot va aloqa va 26,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Termiz shahri (3 897 ta), Denov (2 177 ta), Jarqo'rg'on (1 405 ta) va Termiz (1 287 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Oltinsoy (703 ta), Muzrabot (820 ta) hamda Boysun (879 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 3 757 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 1,5 martaga ko'pdir.

**2019 yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning
yillar kesimida soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Termiz shahri (724 ta), Denov (523 ta), Termiz (308 ta) va Sho`rchi (307 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Aksincha, Oltinsoy (127 ta), Boysun (150 ta) hamda Muzrabot (150 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko`rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1 287 ta), sanoat (807 ta), qurilish (507 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (334 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (41 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (47 ta), hamda tashish va saqlash (109 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tijorat korxonalarini
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1- oktyabr holatiga 14 875 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6 191 ta, oilaviy korxonalar - 1 042 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 7 280 ta, unitar korxonalar - 159 ta, aksiyadorlik jamiyatlari -24 ta va boshqalar 179 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Mas`uliyati cheklangan jamiyatlar




Xususiy korxonalar



Oilaviy korxonalar




Unitar korxonalar



Aksiyadorlik jamiyatlar



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2019-yil 1- oktyabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 307 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 168 taga yoki 220,9 % ga o`sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Afg`oniston Islom Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog`iston va Xindiston Respublikasi hissalariga to`g`ri keladi.

2019-yil 1-oktyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 307 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, bu korxonalar va tashkilotlarning eng ko`pi Termiz shahri (137 ta), Termiz (37 ta) Uzun (26 ta), Denov (16 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Nisbatan kamlari Boysun (4 ta), Oltinsoy (4 ta) hamda Qumqo`rg`on (8 ta) tumanlariga to`g`ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 99 tasi qo'shma korxonalar, 208 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar
va xorijiy korxonalar soni, birlikda**




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar faollik darajasi, %**



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Surxondaryo viloyati	307	100
Termiz shahri	137	44,6
Boysun	4	1,4
Oltinsoy	4	1,4
Qumqo'rg'on	7	2,3
Sho'rchi	8	2,6
Jarqo'rg'on	9	2,9
Sherobod	10	3,3
Muzrabot	10	3,3
Qiziriq	11	3,6
Angor	13	4,2
Sariosiyo	14	4,6
Denov	16	5,2
Uzun	26	8,5
Termiz	37	12,1

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 133 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 55 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Termiz shahri (67 ta yoki jami ulushi 50,4 %), Termiz (20 ta yoki 15,0 %) va Uzun (15 ta yoki 11,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Oltinsoy, Jarqo'rg'on, Sariosiyo (1 tadan yoki 0,7 % dan), Boysun, Qiziriq hamda Sho'rchi tumanlari (2 tadan yoki 1,5 % dan) hissalariga to'g'ri keladi.


2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Afg'oniston Islom Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 100 ta, Tojikiston Respublikasi – 7 ta, Rossiya Federatsiyasi – 7 ta, Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston Respublikasi va Turkmaniston Respublikasi - 3 tadan, Qozog'iston Respublikasi va Turkiya Respublikasi - 2 tadan, Gretsiya Respublikasi, Gruziya Respublikasi, Eron Islom Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi, Niderlandiya Qirolligi hamda Iroq Respublikasi – 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-sentyabr oylarida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdo (44 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (34 ta) va sanoat (30 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa, axborot va aloqa (1 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (1 ta) hamda tashish va saqlashda (2 ta) tashkil etilgan.


2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-oktyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 14 763 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-oktyabr holatiga qaraganda 21,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3 368 tasi (22,8 %) Termiz shahri, 1 762 tasi (11,9 %) Denov, 1 133 tasi (7,7 %) Jarqo'rg'on hamda 1 119 tasi (7,6 %) Termiz tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jamidagi ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14 763 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4 772 ta (32,3 %) – savdo, 2 531 ta (17,2 %) - sanoat, 2 256 ta (15,3 %) - qurilish, 1 287 ta (8,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1 273 ta (8,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 741 ta (5,0 %) - tashish va saqlash, 257 ta (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 226 ta (1,5 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1 420 tasi (9,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 3593 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,6 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz shahri (684 ta), Denov (501 ta), Termiz (302 ta) va Sho'rchi (293 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Eng kam Oltinsoy (121 ta), Boysun (139 ta) hamda Muzrabot (141 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa, eng ko'pi savdoda (1287 ta), sanoatda (806 ta), qurilishda (506 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (333 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (41 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (45 ta) hamda tashish va saqlashda (108 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019 yilning 1-oktyabr holatiga 1 064 tani tashkil etib, ulardan 1 042 tasi yoki 97,9 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda, davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 37,3 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 31,1 % yoki 324 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 28,3 % yoki 295 tasi sanoat, 23,5 % yoki 245 tasi savdo, 9,3 % yoki 97 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,6 % yoki 17 tasi qurilish, 1,1 % yoki 11 tasi tashish va saqlash, 0,5 % yoki 5 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,4 % yoki 4 tasi axborot va aloqa hamda 4,2 % yoki 44 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**






Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi yashash va ovqatlanish xizmatlari hamda sanoat, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Surxondaryo viloyati	334	100
Termiz sh.	25	7,5
Oltinsoy	18	5,4
Angor	28	8,4
Boysun	X	X
Muzrabot	4	1,2
Denov	76	22,8
Jarqo'rg'on	42	12,6
Qumqo'rg'on	8	2,4
Qiziriq	18	5,4
Sariosiyo	17	5,1
Termiz	27	8,1
Uzun	6	1,8
Sherobod	25	7,4
Sho'rchi	40	11,9

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 334 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,6 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Denov (76 ta), Jarqo'rg'on (42 ta), Sho'rchi (40 ta) va Angor (28 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Muzrabot (4 ta), Uzun (6 ta) hamda Qumqo'rg'on (8 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019 yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %****Sanoat****Savdo****Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar****Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi****Qurilish****Axborot va aloqa****Boshqa turlari**

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, ularning 36,2 % yoki 121 tasi sanoat, 28,4 % yoki 95 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 24,9 % yoki 83 tasi savdo, 6,9 % yoki 23 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,9 % yoki 3 tasi axborot va aloqa, 0,6 % yoki 2 ta qurilish shuningdek, 2,1 % yoki 7 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Surxondaryo viloyati
Statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish
bo'limi
Tel.:71-230-85-90(91)**